

Qushlar kuni munosabati bilan seminar-trening!

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti “Ekologiya va yashil resurslar” kafedrasida o‘qituvchisi Sadiyeva Intizor hamda Rus filologiya fakulteti tyutori Izzatullayeva Dilnoza bilan birgalikda “Qushlar kuni” munosabati bilan qiziqarli va foydali tadbir tashkil etildi.



Seminar-trening davomida talabalar:

- Qushlarni muhofaza qilish yo‘llari,
- Ularning yashash muhitini saqlab qolish,
- Ekologik muvozanatni ta’minlashning ahamiyati haqida chuqur ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.



Tadbir yoshlarda ekologik ongni shakllantirish, tabiatga mehr uygʻotish va uni asrash masʼuliyatini singdirish maqsadida oʻtkazildi.

Keling, qushlarni asraylik — bu orqali kelajagimizni muhofaza qilamiz!

